

## TERMINOLOGIYANING TILSHUNOSLIK FANI SOHASI SIFATIDA SHAKLLANISH TARIXI

**Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi**

Tabiiy yo‘nalishlar bo‘yicha chet tillari kafedrasи o‘qituvchisi.

usmonovashahnoza40@gmail.com

Bugungi kunda dunyo tilshunosligining e’tiborida turli xil mavzular qatorida terminologiya dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi paytda zamonaviy tilshunoslikda yanada aktuallashgan va chuqurroq o‘rganilayotgan “terminologiya”ni topish asosiy vazifaladan biri hisoblanadi.

Terminologiya lingvistik tadqiqotlarning aktual yo‘nalishlaridan biridir. Termin so‘zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunoslар (logiklar) uchun termin-aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig‘indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so‘z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so‘z termin bo‘lishi mumkin.

Fan va texnikada termin sun’iy o‘ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingen maxsus so‘z sanaladi. Bunday so‘zlamning qo‘llanish sohasi u yoki bu ilmiy mакtab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumil terminlaridan farqli o‘larоq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o‘z ma’nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi.

Bugunga kelib terminologiya masalasining avj olishi, bir tomondan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi sababli yangi tushunchalarning yuzaga kelishi va ko‘payishi bilan bog‘lansa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan bog‘liq hodisa deb izohlanadi.

Terminologiya keng ma’noda leksikaning bir qatlami bo‘lib, ijtimoiy hayotning turli sohalarida fan, texnika va boshqa sohalarda qo‘llaniladigan terminlarning majmuidir. Terminologiya tor ma’noda fan yoki texnika, ishlab chiqarishning ma’lum bir sohasiga oid terminlar tizimining yig‘indisini tashkil etadi. Har bir fan, texnikaga oid bo‘lgan terminlar birlashtirilib, terminologiya deb ataladi

Hozirgi o‘zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o‘rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug‘at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g‘oyaga ko‘ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e’tirof etilsa, ikkinchi ta’limotga muvofiq u adabiy til so‘z boyligi tarkibidan ajratiladi, “alohida turuvchi” obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so‘zlashuv)ga tenglashtiriladi.

Ma'lumki, «terminologiya» lotincha «terminus» va grekcha «logos» so'zlaridan olingan bo'lib, «terminlar haqidagi fan» ma'nosini bildiradi.

A.D.Xayutin ingliz tilining etimologik lug'atiga asoslanib, terminologiya so'zi ilk bor nemis olimi S. Shyutz tomonidan qo'llanilganini ta'kidlaydi. Uning aniqlashicha, ushbu so'z ingliz, fransuz tillarida XVIII asr oxirlarida, rus tilida esa XIX asr boshlarida iste'molga kirgan. Ma'lumotlarga ko'ra, avstriyalik terminolog va esperantolog olim Oxygen Vyuster texnikaga oid terminlarni o'rganib, o'z monografik tadqiqoti orqali terminshunoslik mакtabiga asos solgan. X.Felber dunyodagi birinchi terminologiya bo'yicha xalqaro o'quv qo'llanmasini chop ettiradi (Fransiyaning poytaxti Parijda, 1984 yil). Qolaversa, Yevropa tilshunosligi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan, Jeneva universitetining professori, shveytsariyalik tilshunos olim Ferdinand de Sossyur nazariyasida, Jeneva tilshunoslik mакtabi vakillari Sh.Balli, A.Seshening ilmiy asarlarida, fransuz sotsiologik mакtabi namoyandalari A.Meyye, J.Vandriyes kabilarning ilmiy ishlarida terminlar va terminologiya haqida ilmiy-nazariy qarashlarni kuzatish mumkin. Jahon tilshunosligida esa F.Y.Mauler, Y.V.Moshnyaga, A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, N.V.Vasilyeva, N.I.Arnold kabi olimlar terminologiya sohasining mavjud muammolariga e'tibor qaratib, o'ziga xos, original yechimlar taklif etishgan.

Terminologiya 1930-yillardan boshlab rus tilshunoslarning tadqiq obyektiga aylandi. D.S.Lotte terminologiyaning nazariy masalalari rivojlanishining negizida terminologiyani til fanining alohida sohasi sifatida rivojlantirishda katta xissa qo'shgan. U dastlab terminologiyani tizimlashtirish, unifikatsiya qilish va standartlashtirish zarurligi to'g'risidagi masalani ko'tardi. Shu sababli ishlab chiqqan termin nazariyasining asosini tashkil etdi. D.S.Lotte terminlarni boshqa til birliklaridan va terminologiyani tilshunoslikning boshqa tarmoqlaridan farqlashning lingvistik mezonlarini ishlab chiqdi. Shu nuqtai nazardan, uning tadqiqotida "ideal termin" masalasi muhim o'rin tutadi. Terminlarning kategorik xususiyatlariga noaniqlik, aniqlik, qisqalik, sinonimiya va tarmoq ichidagi omonimiyadan mahrum bo'lish, shuningdek, tovush qobig'i bilan bog'liq. D.S.Lottening xizmatlari, shuningdek, terminshunoslikda o'zlashtirish muammosiga katta e'tibor berish, o'zlashma terminlarni tasniflash mezonlarini taklif qilishdir. Shuningdek, u o'zi ishlab chiqqan ba'zi imlo qoidalariga, ayniqsa, murakkab terminlarga e'tibor qaratadi. D.S.Lotte tadqiqotlarida terminologiyaning asosiy muammolariga o'ziga xos yechim topildi va shu bilan ilmiy terminologiya rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

V.P.Danilenko asosan rus terminologiyasini o'rganish bilan shug'ullangan va o'z tadqiqotlarida D.S.Lotte gipotezasining nomuvofiqligini isbotlagan. U terminni maxsus so'z sifatida emas, balki maxsus vazifadagi so'z sifatida ko'rib chiqish qonuniyatini tasdiqladi. Terminologiyaning lingvistik qonuniyatlarini o'rganishga

ingliz, fransuz nemis va rus tillarida zamonaviy terminologik tizimlarni o‘rganish bilan shug‘ullangan L.B.Tkacheva katta hissa qo‘shdi. O‘z tadqiqotida u ma’lumotlarini kompyuterda qayta ishlashdan foydalangan. L.B.Tkacheva terminologiyaning turli jihatlarini o‘rganar ekan, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ta’minlashda terminlarning roliga alohida e’tibor berdi. U o‘z asarlarida onomasiya holati va faraziy terminlar bilan bog‘liq muammolarni ko‘rib chiqdi. Uning termin haqidagi nuqtai nazari V.P.Danilenkoning "termin - bu maxsus funktsiyadagi so‘z" degan nuqtai nazariga to‘g‘ri keldi va bu fikr, bizning fikrimizcha, eng to‘g‘ri. B.N.Golovinning terminologik tadqiqotlari tilshunoslikda ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ldi. U terminlarda sinonimiya bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblab, ma’nolarning o‘ziga xosligini bildirish uchun “sinonimiya” tushunchasini “dublet” bilan almashtirishni taklif qildi. Biz bunga qo‘shila olmaymiz, chunki sinonimik terminlar ham mutlaq, ham nisbiy bo‘lishi mumkin va "dublet" har doim nisbiy narsadir.

Motivatsiyalangan terminlar muammosiga birinchi marta D.S.Lotte, T.L.Kandelaki va boshqalarning terminologik ishlarida to‘xtalib o‘tilgan.

T.L.Kandelaki tadqiqotida terminologik tizimdagi ichki ierarxik munosabatlarni ochib beruvchi ma’lum toifalar asosida terminologiyani qismlarga ajratish taklif qilingan. Oldingi tadqiqotchilar singari, u termin uchun bir qator talablarini ilgari surdi. T.L.Kandelaki terminshunoslikda asossiz o‘zlashtirishga qarshi chiqdi, o‘zlashma har qanday bilim sohasidagi mutaxassislar o‘rtasidagi muloqot jarayoninigina murakkablashtiradi, deb hisobladi. O‘zlashmalardan voz kechib, o‘z til vositalaridan foydalanishni taklif qildi. D.S.Lotte singari u ham kerek siz terminlarga qarshi chiqdi.

E.S.Kubryakova til birligining motivatsiyasi muammosini uning morfologik tuzilishi nuqtai nazaridan o‘rganib chiqib, motivlangan va motivlanmagan til birliklariga o‘ziga xos ta’rif berdi. Shuningdek, terminlarni shakllantirish usullaridan biri - morfologik (affiksatsiya)ni ko‘rib chiqib, bu usulda ko‘p hollarda motivlangan terminlar yuzaga kelishi yaratiladi. U qisqartma terminlarni motivlanganlarga ham motivlanmaganlarga ham kiritmasdan, ular o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in deb hisoblaydi. Qayd etish joizki, qisqartmalarning til birliklarining terminologiya vositalaridan biri sifatidagi maqomi, jumladan, ularning terminologiyada motivatsiya darajasi yetarlicha o‘rganilmagan.

Har qanday muayyan maqsadlar uchun mo‘ljallangan tilning yadrosini, terminologiya deb atalgan maxsus leksika tashkil qiladi. Terminlar u yoki bu tabiiy tilning lug‘aviy qismi sifatida o‘rganib chiqilishi mumkin, ammo ular terminologik tizimda keng ma’noda millat tilining funksional xilma-xilligida aks etadi hamda muayyan maqsadlar uchun mo‘ljallangan tilga nisbatan kengroq hisoblanadi. Grammatik jihatdan muayyan maqsadlarga mo‘ljallangan til umumiyligi tilga nisbatan imkoniyati cheklangan. U millat tilining bir bo‘lagi sifatida qaraladi. Shuningdek,

terminologiya va nomenklaturalarga qo'shimcha ravishda nutqning eng tipik turlarini ham o'z ichiga oladi.

O'zbek terminologiyasining shakllanishini bir qator olimlarimizning izlanishlarida kuzatishimiz mumkin. Xususan, N.A.Baskakov, N.K.Dmitriev, B.U.Oruzbayeva, R.A.Urekenova, M.Sh.Gasimov, A.S.Orudjaliyevalarning turkiy tillar materiallari asosida terminlarni o'rGANISH bo'yicha ishlarini ko'rsatish mumkin.

Shunigdek, terminologiya borasida professor U.Tursunovning fikrlari bugungi tilshunosligimiz uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug' Tursunov terminologiya borasidagi qarashlarni umulashtiradi, munosabat bildiradi, teminlarning hosil bo'lishi, tartibga solinishi, terminlarni to'plash, guruhlash borasida o'z qarashlarini bayon etgan. Olim o'z asarlarida asosan ikki masalaga alohida yondoshgan. Bularidan birinchisi terminlarning qo'llanilishi bo'lsa, ikkinchisi terminologiyaning boyish manbalaridir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мадвалиев А. Термин ва терминография хусусида / Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашириёти, 2017. – Б.29.
2. Исмаилов F. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз.... дисс.автореф. – Тошкент, 2011. – Б.7-8.
3. Владимиров В.В.,Фомин И.А. Основы районной планировки. – М.: Высшая школа,1985. – 222 с.
4. G'ulomov P., Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik – Toshkent, 2005. – 75 b.
5. Сычева А.В. Основы ландшафтной архитектуры – Минск, Парадокс, 2002 – 88 с.
6. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география. Понятийно-терминологический словарь. – М.: Мысль, 1983 – 350 с.
7. Берг Л.С. География и ее положение в ряду других наук/ Сб.: Вопросы страноведения. – М.-Л., 1925 –50 с.
8. Usmonova, Sh. Y. (2023). O'zbek va ingliz tilida landshaft atamalarining qiyosiy tahlili. Ta'lif, fan va Innovatsiya. 3-son,481-485 b.
9. Usmonova, Sh. Y. (2023). Structural features of landscape terms in Uzbek and English languages. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) 24(4),44-48 p
10. Palmer F.R. The English verb. London: Longman, 1988.